



AVTOMOBIL BOZORIDA YETAKCHI DAVLATLAR, AVTOKONSERNLARNING INNOVATSION REYTINGGI

Islomov Sherzod Eshquvvatovich,

Jizzax Politehnika instituti, dotsent, sh.islom@list.ru

Shavqiyev Elbek Abdurazzoq o'g'li

Jizzax politehnika instituti, Transport fakulteti talabasi,

Annotatsiya

Mazkur maqolada jahon bo'yicha avtomobilsozlik sanoatidagi yetakchi davlatlarda ishlab chiqarilgan avtomobillarning miqdori, sotish hajmi, sifat ko'rsatgichi, ekspert hajmi va innovatsion reytingi bo'yicha tahlillar keltirilgan .

Kalit so'zlar

Avtomobil, avtomobilsozlik, yetakchi davlatlar, Xitoy, AQSH, Germaniya, Yaponiya, Hindiston, sotish hajmi, sifat ko'rsatgichii, ekspert hajmi, innovatsion reytingi.

СТРАНЫ-ЛИДЕРЫ НА АВТОМОБИЛЬНОМ РЫНКЕ, РЕЙТИНГ ИННОВАЦИОННОСТИ АВТОМОБИЛЬНЫХ КОНЦЕРНОВ

Исломов Шерзод Эшкувватович,

Джизакский политехнический институт, доцент, sh.islom@list.ru

Шавкиев Эльбек

Джизакский политехнический институт, студент, elbekshavqiy@gmail.com

Аннотация

В данной статье представлен анализ количества, объема продаж, показателя качества, экспертного объема и рейтинга инновационности автомобилей, производимых в ведущих странах мира в автомобильной промышленности.

Ключевая слова

Автомобиль, автомобильная промышленность, страны-лидеры, Китай, США, Германия, Япония, Индия, объем продаж, индекс качества, экспертный объем, рейтинг инноваций.

LEADING COUNTRIES IN THE AUTOMOBILE MARKET, INNOVATION RATING OF AUTOMOBILE CONCERNS



Islamov Sherzod Eshquvvatovich,

Jizzax Polytechnic Institute, dotsent, sh.islom@list.ru

Shavqiyev Elbek,

Jizzax Polytechnic Institute, Student of the Faculty of Transport,

elbekshavqiy@gmail.com

Abstract

This article presents an analysis of the quantity, sales volume, quality indicator, expert volume and innovation rating of cars produced in the world's leading countries in the automotive industry.

Key words

Automobile, avtomobilnaya promyshlennost, strany-leadery, China, USA, Germany, Japan, India, sales volume, index kachestva, expert volume, innovative rating.


Avtomobil bozori global miqyosdagi eng ta'sirli tarmoqlardan biri bo'lib, iqtisodiyotlarni, jamiyatlarni va individual turmush tarzini shakllantiradi. Avtomobil bozorining dinamik manzarasini, bozorining asosiy ishtirokchilari, segmentatsiyasi, tendentsiyalari va o'sish imkoniyatlarini o'rganadigan keng qamrovli www.statista.com tadqiqot saytining bshorat qilishicha global avtomobil bozori **2030 yilga kelib 3817171,94 million AQSh dollarini tashkil etadi** [1].

Avtomobilsozlik sanoati dunyoda juda muhim rol o'ynaydi, hozirgi kunda dunyoda yalpi ichki mahsulotning 4%i va sanoat ishlab chiqarishining 12%ini tashkil qiladi. Bitta avtomobil ishlab chiqarish uchun rivojlangan davlatlarda 130-150 ishchi/soatni tashkil qiladi. Jaxonda ishlab chiqarilgan avtomobillarning o'rtacha 40%i eksport qilinadi [2, 13].

2022 yil yakunlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 40 ga yaqin davlatlarda 82.5 mln.ga yaqin avtomobil ishlab chiqarilgan. Ishlab chiqarish hajmlariga ko'ra eng yirik davlatlar beshtaligi Xitoy (32.7%), AQSh (12.2%), Yaponiya (9.5%), Hindiston (6.6%) va Janubiy Korea (4.55%) davlatlari umumiy ishlab chiqarishning deyarli 3/1ni (65.6%) tashkil qiladi [3, 12].

1-jadval

So'nggi yillarda avtomobil ishlab chiqarishda yetakchilar

	Davlat	2022	202	202	2019	201	2017	201	201	201	200
1	Dunyo bo'yicha	82 500	80	77	92 176	96	96747	95	90	77	58
2	 Xitoy	26 997	26	25	25 225	27	29015	28	24	18	2 069



	Davlat	2022	202	202	2019	201	2017	201	201	201	200
3	AQSH	10 102	9 167	8 822	11 298	11	11190	12	12	7 761	12
4	Yaponiya	7 841	7 847	8 068	9 685	9 730	9694	9 205	9 278	9 626	10
5	Hindiston	5 456	4399	3394	4 524	5143	4792	4489	4 161	3 537	801
6	J. Koreya	3 756	3 462	3 507	3 951	4 029	4115	4 229	4 556	4 272	3 115
7	Germaniya	3 585	3 309	3 742	49 47	5 120	5646	6 063	6 033	5 906	5 527
8	Meksika	3 308	3 146	3 177	4 013	4 101	4068	3 597	3 565	2 345	1 936
9	Braziliya	2 176	2 248	2 014	2 945	2 881	2700	2 156	2 429	3 648	1 682
10	Ispaniya	1 883	2 098	2 268	2 823	2 820	2848	2 886	2 733	2 388	3 033

LMC Automotive konsalting kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda jahon avtomobil bozori 2022 yilga nisbatan 11,1 foizga o'sib, 90 million 079 ming yengil avtomobil va yengil tijorat avtomobillarini tashkil qildi [4, 13].

Xitoy avtomobil ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasi (CAAM) ma'lumotlariga ko'ra, Xitoy 15 yil ketma-ket avtomobil ishlab chiqarish va sotish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallab kelmoqda va avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha etakchi hisoblanadi [5].

2022-yilda Xitoyda avtomobil ishlab chiqarish 3 foizga o'sib, 27,66 million donani, savdo hajmi esa 2,1 foizga o'sib, 26,86 million donani tashkil etdi, 2022-yilda yengil avtomobillar ishlab chiqarish va sotish hajmi 23,836 million va 23,563 million donani tashkil etib, 2021 yilga nisbatan mos ravishda 11,2 foiz va 9,9 foizga o'sdi [7].

"Sinxua" agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda Xitoy avtomobilsozlik sanoati o'z daromadi va foydasini 9,29 trillion yuangacha (taxminan 1,4 trillion dollar) oshirdi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,8 foizga o'sdi. Xitoy YalMning taxminan 10%i aynan avtosanoat tomonidan ta'minlanadi, unung umumiy qiymati - 1,77 trln dollarni tashkil etadi.

Xitoyda 2023 yilda 29,633 million avtomobil ishlab chiqarildi va 2022 yilga nisbatan +10,8 foiz ko'rsatkich bilan avtomobil savdosi bo'yicha jahon yetakchisi bo'lib qolmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlar avto ishlab chiqarish jahmlari bo'yicha shohsupadagi birinchilikni 2007 yillar so'ngidayoq Xitoyga boy bergan bo'lsa-da, yengil va yuk avtomobillari ishlab chiqarishda rivojlangan davlatlar orasida eng yirigi bo'lib qolmoqda. 2021 yil yakunlariga ko'ra, AQSh hududida 9,2 mln yengil, yo'ltanlamas va yengil tijorat avtomobili ishlab chiqarilgan. Mamlakat YIM o'tgan



yili 23 trln dollarni tashkil etdi (2020 yilga nisbatan o'sish 10,1%). Ushbu muhim makroekonomik ko'rsatkichning 3% ulushi avtomobil ishlab chiqarish hissasiga to'g'ri keladi (mutlaq ifodada - 690 mlrd dollar). American Automakers assotsiatsiyasining ta'kidlashicha, qayta ishlovchi sanoatning boshqa hech qaysi sektori milliy YaIMda bu qadar yuqori ulushga ega emas. Bevosita avtomobil sanoatida AQShda 1,7 mln, turdosh sohalarda yana 8 mln odam ishlaydi [6].

Yaponiya - dunyoda avtomobil ishlab chiqarish sohasida stabil ko'rsatgich qayd etayotgan davlat hisoblanadi. Yapon avtomobil zavodlari 2022 yili umumiy hisobda 7.847 mln avtomobil ishlab chiqardi. Bunda 2021 yilda mamlakat jami bozor qiymati 5,1 trln dollarga teng tovar va xizmatlarni taqdim etdi. Yaponiyada, xuddi Xitoydagi kabi avtomobil sanoati ulushi juda yuqori - YIMning 10%i, ya'ni 510 mlrd dollarga teng. statista.com xizmati ma'lumotlariga ko'ra, bevosita avtosanoat va u bilan turdosh sohalarda Kunchiqar mamlakatda 5,9 mln odam ishlaydi [8].


Hindiston o'z avtosanoatini chin ma'noda faol rivojlantirishni oxirgi 15 yilda boshlagan bo'lsa-da, ammo allaqachon hayratlanarli natijalarga erishdi - 2021 yil davomida ishlab chiqarish hajmi 4,4 mln birlikkacha o'sdi. Ushbu Janubiy Osiyo mamlakatining YIM 2021 yil yakunlariga ko'ra, 2,85 trln dollarni tashkil etib, 2020 yilga nisbatan 8,4%ga o'sishni ko'rsatdi. Hindiston hukumatining maqsadli harakatlari tufayli avtosanoatning davlat milliy iqtisodiyotidagi ahamiyati so'nggi yillarda 7,1%lik ko'rsatkichga etdi (202,35 mlrd dollar). 2,72 mln odam bevosita Hindiston avtosanoati korxonalarida ishlaydi va yana shuncha ish o'rinlari turdosh sohalarda yaratilgan [3].

Janubiy Koreyada so'nggi yil davomida 3,5 mln.dan ziyod avto ishlab chiqarilgan, mashinalarning taxminan 60%i esa tashqi bozorlarga eksport qilingan. Koreyadagi avtosanoat an'anaga muvofiq, asosiy "iqtisodiy lokomotiv"lardan biri sanaladi: ushbu mamlakatda sohaning YaIMdagi ulushi 10%dan oshiq. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Janubiy Koreya yalpi ichki mahsulotining o'zi 2021 yilda 1,7 trln dollarga etdi va 2020 yildagi 4%lik ko'rsatkichni ortda qoldirdi.

Kearney konsalting kompaniyasi mutaxassislarining fikricha, butun dunyoda avtomobillar mintaqaviy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi vazifasini o'taydi. To'liq tsikldagi yirik avtozavodlar atrofida, tabiiyki, dastlabki komplektatsiya uchun tarkibiy qismlar ishlab chiqaruvchilari, xomashyoni qayta ishlash korxonalari, sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish nuqtalari, transport xizmatlari etkazib beruvchilaridan iborat sanoat klasterlari shakllanadi. Ushbu klasterlar infrastruktura va ma'muriy hududlar rivojlanishi, yangi turar joy hududlarini yaratish, yakka tartibdagi daromadlarning o'sishi va h.k. uchun zamin hozirlaydi. Avtozavodlar atrofida shakllangan shaharlarga Ulsan (Janubiy Koreya), Detroyt (AQSh) va Tolyatti (Rossiya) yaqqol misol bo'la oladi.

Avtosanoatdagi bitta ish o'zni qazib olish va qayta ishlash sohalarida to'rtta va undan ko'pi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi. Bu borada milliy avtomobil sanoatini rejali tarzda rivojlantirgan va kengaytirgan Janubiy Koreya tajribasi e'tiborga loyiq - bu boshqa sohalar qatorida mahalliy metallurgiya rivojlanishiga sabab bo'ldi: shu tariqa, koreya kompaniyalari tomonidan po'lat sotish hajmi 2002 yildagi 55 ming tonnadan 2012 yilda 210 ming tonnagacha oshdi.

2022-yilning yakunida Germaniyaning "Du Automotive INNOVATIONS" Avtomobil menejment markazi instituti tomonidan Avtomobillarda qo'llaniladigan innovatsiyalari reytingi tahlilini taqdim etdi (1-rasm) [9, 10].



1-rasm. "Du Automotive innovations" instituti tomonidan tuzilgan avtomobil lishlab chiqaruvchi kompaniyalarning innovatsion indekslari

Du Automotive INNOVATIONS instituti 2022 yil uchun Yevropa, Yaponiya, AQSh va Xitoyning 38 ta kompaniyalar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan 90 ga yaqin avtomobil brendlarini 2500 ta innovatsiyon ko'rsatgich bo'yicha tahlil qilib chiqdi. Natijada, Volkswagen avtomobillari eng innovatsion kompaniya deb topildi, mutaxassislar tomonidan 466,9 ballga baholandi. U 462 ta innovatsion



yangilikni kiritgan (ulardan 73 tasi avtomobil sanoati uchun noyobdir). Xususan, display, adaptiv kruiz-kontrol, travel assist va h.k.

Innovatsiyalar bo'yicha reytingning dastlabki uch o'rne Germaniya kompaniyalari Volkswagen, Daimler, BMWga tegishi, 4-o'rinda Tesla, 5-o'rinda Hyundai egallagan. Umumiy holda innovatsiyalarni qo'llash bo'yicha reytingda Xitoy va Yaponiya kompaniyalari eng ko'p o'rinni egallagan.

2023 yilda Nufuzli Automotive Innovations Award tomonidan o'tkazilgan tanlovda 29 ta avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning jami 1000 ta innovatsiyalari ko'rib chiqildi va baholandi. Baholash mezonlari: mahsulotning yetukligi va o'ziga xosligi, mijozlar uchun qiymati, dizayni, jihozlar darajasi, zamonaviy gadjetlarning ko'pligi va boshqalar.

2023 yilning natijalari bo'yicha 1 va 2 o'rin mos ravishda Germaniyaning Daimler va Volkswagen konserni egalladi. Xitoy avtomobil ishlab chiqaruvchisi Geely uchinchi o'rinni egallagan bo'lsa, 4-o'rinni yana bir Xitoy kompaniyasi - SAIC egallaydi va Ford brendi sayyoradagi eng yaxshi innovatsion ishlab chiqaruvchilarning beshtaligini yopadi. Umuman olganda, TOP 15 ta kompaniyaga 6 ta Xitoy brendi kirdi [1, 11].

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, avtomobilsozlik sanoatida 2008 yillarda Xitoy miqdor jihatdan yetakchilikni egallab kelishi bilan birga, oxirgi yillardagi tahlillar asosida avtomobilga innovatsion yangiliklarni qo'llash borasida Germaniya kompaniyalaridan ancha ortda bo'lishiga qaramasdan, Yaponiya kompaniyalari bilan raqobatda ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari Innovatsion indeks ko'rsatgichlari yuqori bo'lgan 30 ta kompaniyaning 12 tasi aynan Xitoy kompaniyalariga tegishlidir. Xitoy - nafaqat avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha yaqqol yetakchi, sifat jihatdan ham dunyoning eng mashxur brendlari bilan raqobatda, shu bilan bir qatorda elektromobillar va gibrid avtomobillar bo'yicha ham yetakchilik qilmoqda.

Bundan tashqari, Xitoy avtomobillari Yevropa va AQShning yetuk bozorlariga kirib bormoqda. Eksport mamlakatlari va mintaqalarini tahlil qiladigan bo'lsak, Xitoyning 2022 yilda avtomobil eksport qiluvchi o'ntaligiga nafaqat Hindiston va Tailand kabi rivojlanayotgan mamlakatlar, balki Avstraliya, Buyuk Britaniya va Tailand kabi rivojlangan davlatlar ham kiradi. Xitoyning yetakchi avtomobil ishlab chiqaruvchilari ishlab chiqarish va yetkazib berish barqarorligini ta'minlash maqsadida sig'imi 7 mingdan 8,6 ming avtomobilgacha bo'lgan 15 ta yangi kema qurishni boshladi va Yevropa, Janubiy Amerika, Avstraliya va dunyoning boshqa mintaqalariga 15 ta yangi yo'nalish ochishni rejalashtirmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.statista.com/study/12114/motor-vehicle-production-statista-dossier/>
2. Islomov, S. E. (2023). "XXI-ASR" ELEKTROMOBIL SANOATINING IKKINCHI UYG'ONISH DAVRI. *Academic research in educational sciences*, 4(5), 150-156.
3. Islomov, S. (2020). РЕСПУБЛИКАМИЗДА АВТОМОБИЛЬ СЕРВИСНИНГ ИСТИҚБОЛИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
4. https://dzen.ru/a/ZLUM-VX_VSvi8oAE?experiment=948515
5. Eshquvvatovich, I. S., & Iskandar o'g'li, U. I. (2023). AVTOMOBIL SANOATI TENDENSIYALARI: YETAKCHILAR, YO'NALISHI VA INNOVATSION INDEKSI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 1309-1316.
6. Islomov Sh.E., Avtomobil sanoatida yetakchilarining rivojlanishi, yondoshuvi, yo'nalishi va innovatsion indeksi "Mashinasozlik" ilmiy-texnik jurnali. Andijon. Andijon Mashinasozlik instituti. 3- son. 2023 yil 148-154 bet.
7. Eshquvvatovich, I. S., & Abdurakhimovich, P. U. (2021). The importance of the level of motorization in the development of vehicle maintenance. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(1), 18-26.
8. Mansurovna, M. L., & Eshquvvatovich, I. S. (2021). Study of the influence of operating factors of a vehicle on accident by the method of expert evaluation. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(1), 10-17.
9. Eshquvvatovich, I. S., & Sattorovich, Q. I. (2021). DETERMINATION OF THE MAIN FACTORS AFFECTING THE TECHNOLOGICAL EQUIPMENT OF MOTOR TRANSPORTATION ENTERPRISES. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(1), 1-9.
10. Eshquvvatovich, I. S., & Abdukarimovich, U. B. (2022). INFLUENCE OF CAR ERGONOMICS ON TRAFFIC SAFETY. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(5), 22-29.
11. Исломов, Ш. Э., & Одилов, Н. Э. Ў. (2022). АВТОМОБИЛ ТРАНСПОРТИ МАЖМУАСИ ИШТИРОКИДА АТРОФМУҲИТ СИФАТИНИНГ ТЕХНОГЕН ЎЗГАРИШИ. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 479-486.
12. Islomov, S. E., & Mamaeva, L. M. (2022). AVTOMOBIL TRANSPORTI VOSITALARIDAN AJRALIB CHIQUADIGAN ZARARLI MODDALARNING UMUMIY KONSENTRATSIYASINI ANIQLASH. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 878-884.



13. Исломов Шерзод Эшқуватович, & Мамаева Ление Мансуровна (2022). Автомобилларни очик сақлашнинг атроф-мухитга зарарли таъсирини баҳолаш. *Механика и технология*, 3 (8), 145-150.

14. Eshquvvatovich, I. S., & Fayzullayevich, E. S. (2023). AVTOTRANSPORT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TAMOYILLARI VA ASOSIY TALABLAR. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 1317-1324.

15. Исломов, Ш. Э., & Мамаева, Л. М. (2022). АВТОТРАНСПОРТ КОРХОНАЛАРИДА АВТОМОБИЛЛАРНИ САҚЛАШ УСУЛИНИ ТАНЛАШ УСЛУБИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 244-250.